



MILLIY KOLORIT TUSHUNCHASI TALQINI

Yo'lchiyev Madiyor Yo'lchi o'g'li
Turon universiteti magistri

Annotatsiya. Adabiyot millat ruhining badiiy ifodasi sifatida har bir xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlar va estetik qarashlarini o'zida mujassam etadi. Shu nuqtayi nazardan "milliy kolorit" tushunchasi adabiyotshunoslikda muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. Milliy kolorit badiiy matnning tashqi bezagi emas, balki uning ichki mohiyatini belgilovchi, milliy ruhni ochib beruvchi estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Vaqt o'tishi bilan bu tushuncha kengayib, badiiy adabiyotda milliy o'ziga xoslikni ifodalovchi vositalar majmuasini bildiradigan termin sifatida qo'llanila boshladi. Ilmiy manbalarda milliy kolorit turlicha talqin qilinadi: ayrim tadqiqotchilar uni badiiy asardagi milliy muhit tasviri deb hisoblasalar, boshqalar uni xalq ruhiyati, mentaliteti va madaniy o'ziga xosligi ifodasi sifatida izohlaydilar.

Abstract. Literature, as an artistic expression of the spirit of the nation, embodies the historical experience, worldview, traditions and aesthetic views of each people. From this point of view, the concept of "national color" is one of the important categories in literary criticism. National color is not the external decoration of a literary text, but rather an aesthetic phenomenon that determines its inner essence, revealing the national spirit. Over time, this concept expanded and began to be used as a term denoting a set of means of expressing national identity in literary literature. National color is interpreted differently in scientific sources: some researchers consider it a depiction of the national environment in a work of art, while others interpret it as an expression of the people's psyche, mentality and cultural identity.

Kalit so'zlar: milliylik, kolorit, an'ana, urf-odat, xalqning o'ziga xosligi, odat, rasm-rusum, milliy ruh, mintalitet.

Keywords: nationality, color, tradition, customs, national identity, custom, image, national spirit, mentality

"Milliy kolorit" termini san'atshunoslikdan adabiyotshunoslikka kirib kelgan tushuncha bo'lib, uning ildizi lotincha "color" so'ziga borib taqaladi va dastlab tasviriy san'atda ranglar uyg'unligini anglatgan. Umuman olganda, milliy kolorit muayyan xalqning tarixiy, ijtimoiy, madaniy va psixologik xususiyatlarini badiiy vositalar orqali ifodalovchi tizimdir. Uning asosiy xususiyatlari sifatida milliylikni ifodalashi, tarixiylik va an'anaviylikka tayanishi, estetiklik bilan uyg'unligi hamda makon va zamon bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi. Shu bois milliy kolorit badiiy



asarda oddiy dekorativ unsur emas, balki g'oyaviy-estetik tuzilmaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Adabiyotshunoslikda milliy kolorit masalasi milliylik, xalqchillik va realizm kabi tushunchalar bilan uzviy bog'liq holda o'rganiladi. Realistik adabiyotda hayotni haqqoniy tasvirlash talabi milliy muhitni tabiiy va ishonarli ifodalash zaruratini yuzaga keltiradi. Shu jihatdan milliy kolorit badiiy asarning obrazlar tizimi, til va uslubi, syujet va kompozitsiyasi, makon va vaqt tasvirida namoyon bo'ladi. Tadqiqotchilar milliy koloritni tashqi va ichki qatlamlarga ajratadilar. Tashqi kolorit urf-odatlar, marosimlar, kiyim-kechak va kundalik turmush detallari orqali ko'zga tashlansa, ichki kolorit xalqning tafakkuri, ruhiyati va axloqiy qadriyatlarini ifodalaydi. Haqiqiy badiiylik aynan shu ikki qatlamning uyg'unligida yuzaga keladi. Milliy kolorit muayyan omillar ta'sirida shakllanadi va rivojlanadi. Eng muhim omillardan biri til hisoblanadi, chunki badiiy asarda qo'llanilgan so'z boyligi, dialektlar, iboralar va maqollar milliy muhitni jonlantiradi hamda qahramonlarning ijtimoiy va madaniy qiyofasini ochib beradi. Mentalitet ham milliy koloritning asosiy negizini tashkil etadi, chunki u insonlarning fikrlash tarzi, qadriyatlari va hayotga munosabatini ifodalaydi. Badiiy asarda qahramonlarning xatti-harakatlari, qarorlari va hissiy reaksiyalari orqali milliy mentalitet namoyon bo'ladi. Urf-odat va an'analar ham milliy koloritni shakllantiruvchi muhim omillar qatoriga kiradi, chunki ular xalqning tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Bundan tashqari, makon va tabiiy muhit ham milliy koloritning ajralmas qismi bo'lib, tabiat tasvirlari orqali nafaqat voqelik fonini yaratadi, balki qahramonlarning ruhiy holatini ham ifodalaydi. Milliy kolorit badiiy asarda turli vositalar orqali ifodalanadi. Avvalo, obrazlar tizimi milliylikni aks ettiruvchi asosiy vosita bo'lib, qahramonlarning xarakteri, nutqi va xatti-harakatlari orqali milliy ruh ochiladi. Lingvopoetik vositalar, jumladan metafora, epitet va boshqa tasviriy vositalar milliy koloritni yanada boyitadi. Syujet va konflikt qurilishida ham milliy muhit o'z aksini topadi, chunki unda jamiyatga xos ijtimoiy muammolar va qadriyatlar ifodalanadi. Badiiy detal esa milliy koloritni aniqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi, chunki kichik bir predmet orqali ham muayyan davr va muhitni tasvirlash mumkin. Globallashuv sharoitida milliy kolorit masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda, chunki global madaniyat ta'siri kuchaygan sari milliy o'ziga xoslikni saqlash zarurati ortib bormoqda. Zamonaviy o'zbek nasrida milliy kolorit bir tomondan an'anaviy qadriyatlarni saqlash, ikkinchi tomondan esa yangi ijtimoiy sharoitda ularni qayta talqin qilish orqali rivojlanmoqda. Bu jarayonda yozuvchilar milliy koloritni nafaqat tashqi belgilar orqali, balki chuqur falsafiy mazmun bilan boyitishga intilmoqdalar. Milliy kolorit badiiy adabiyotning muhim estetik kategoriyalaridan biri bo'lib, u muayyan xalqning ruhiyati, madaniyati va tarixiy tajribasini o'zida mujassam etadi. U badiiy asarning realizmini ta'minlaydi, milliy





ong va tafakkurni aks ettiradi hamda o'quvchiga kuchli estetik ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli milliy koloritni o'rganish adabiyotshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik va tilshunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Tog'ay Murod ijodi misolida milliy koloritning badiiy imkoniyatlarini chuqurroq anglash mumkin.

Til va uslub badiiy asarda milliy koloritni shakllantiruvchi eng asosiy va yetakchi omillardan biri hisoblanadi, chunki aynan til orqali xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, ruhiyati va estetik qarashlari ifodalanadi, shu bois badiiy matnda qo'llanilgan har bir so'z, ibora va nutq shakli milliylikni yuzaga chiqaruvchi muhim vosita sifatida xizmat qiladi, adabiy til bilan bir qatorda xalqona nutq elementlarining qo'llanishi asarda tabiiylikni ta'minlaydi va o'quvchini tasvirlanayotgan muhitga yaqinlashtiradi. Ayniqsa sheva va dialekt unsurlarining mahorat bilan ishlatilishi qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, yashash hududi va madaniy darajasini aniqlashga yordam beradi hamda badiiy haqiqatni ishonarli qiladi, shu bilan birga dialektizm va lokal leksikaning ortiqcha yoki sun'iy qo'llanishi asarning badiiy qimmatini pasaytirishi mumkinligi sababli yozuvchi bu vositalardan me'yorida va maqsadga muvofiq foydalanishi zarur hisoblanadi.

Til va uslubda milliy koloritning yana bir muhim ko'rinishi xalq og'zaki ijodi elementlarining badiiy matnga singdirilishida namoyon bo'ladi, maqollar, matallar, hikmatli so'zlar va frazeologik birliklar asarda nafaqat bezak vazifasini bajaradi, balki milliy tafakkur va axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi, chunki bunday birliklar ko'p asrlik xalq tajribasi asosida shakllangan bo'lib, ularning qo'llanishi orqali qahramonlarning fikrlash tarzi, hayotga munosabati va ichki dunyosi ochib beriladi, natijada badiiy matnda milliy ruh yanada kuchayadi va o'quvchida chuqur estetik ta'sir uyg'otadi. Badiiy tasvir vositalarining milliylikni ifodalashdagi o'рни ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, metafora, epitet, o'xshatish va boshqa stilistik vositalar orqali milliy kolorit yanada boyitiladi, ayniqsa tabiat, mehnat jarayoni, turmush tarziga oid obrazlarning milliy asosda yaratilishi asarning o'ziga xosligini ta'minlaydiro Masalan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan dehqonchilik, chorvachilik yoki qishloq hayoti bilan bog'liq obrazlar orqali tilning obrazlilik darajasi oshadi va milliy muhit jonli tasvirlanadi, bu esa badiiy matnning estetik qimmatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tilning sintaktik qurilishi ham milliy koloritni ifodalashda muhim rol o'ynaydi, gaplarning tuzilishi, ohangi va ritmi xalqona nutq an'alariga mos ravishda shakllanganda badiiy matnning tabiiyligi ortadi, qisqa va lo'nda gaplar xalq nutqiga xos soddalikni ifodalasa, murakkab va kengaytirilgan gaplar qahramonning ichki kechinmalarini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi, shu tariqa sintaktik vositalar orqali ham milliy ruh ifodalanadi va asarning uslubiy yaxlitligi ta'minlanadi. Badiiy asarda





muallif nutqi va qahramon nutqi o'rtasidagi farq ham milliy koloritni ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rustamov A. So'z xususida so'z. "Yosh gvardiya". T.: 1987. 7-bet
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. T.: 2018. 91-bet
3. Badiiy ijod haqida.(Maqolalar to'plami). O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. T.:1960. 276b
4. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. T.: "O'zbekiston". 2001. 120b
5. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. "Fan" nashriyoti. T.:1973. 116b
6. Quronov D. Tog'ay Murod hirgoyilari. Hurriyat gazetasi. 2007
7. Jabborov N. O'tkan kunlarda milliy ruh ifodasi. Filologiya masalalari, 2020, 2-son 35 b.
8. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 2004. 264 b